

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ
DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI
RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy
konferansi materiallari**

UO'K: 821.51.1.11

KBK: 83.8(5Y36)2

Z-45

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili

va adabiyoti universiteti rektori

Zokirjon MASHRABOV,

geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, professor,

Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi

Tahrir hay'ati:

Sirojiddin Sayyid (O'zbekiston), Elisabetta Ragagnin (Italiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Tanju Oral Seyhan (Turkiya), Darya Jigulskaya (Rossiya), Farhad Rahimi (Eron), Vahob Rahmonov (O'zbekiston), Hamidulla Dadaboyev (O'zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Islam Jemeney (Qozog'iston), Hamidulla Boltaboyev (O'zbekiston), Qosimjon Sodiqov (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Ne'matilla Otajonov (O'zbekiston), Abdumajid Madraimov (O'zbekiston), Nusratulla Jumaxo'ja (O'zbekiston), Omonulla Bo'riyev (O'zbekiston), Sultonmurod Olim (O'zbekiston), Iqboloy Adizova (O'zbekiston), Burobiya Rajabova (O'zbekiston), Shuhrat Hayitov (O'zbekiston), Odina Jamoldinova (O'zbekiston), Zulxumor Xolmanova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Ziyoda Teshaboyeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Otabek Jo'raboyev (O'zbekiston), Marg'uba Abdullayeva (O'zbekiston), Oysara Madaliyeva (O'zbekiston), Hilola Nazirova (O'zbekiston), Nodirbek Jo'raqo'ziyev (O'zbekiston), Sabohat Bozorova (O'zbekiston,) Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 25-yanvardagi "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-20-sonli Qaroriga ko'ra o'tkazilayotgan "Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari jamlangan. To'plamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati, adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyot rivojidagi o'rni, adabiy-lingvistik, tarixiy-sotsiologik tadqiqi, shuningdek, Bobur va boburiylar siyosining zamonaviy adabiyotdagi badiiy talqini, adabiy ta'sir va izdoshlik masalalariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljalangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

ISBN 978-9910-9964-2-9

**THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE**

UZBEKISTAN WRITERS UNION

BABUR INTERNATIONAL PUBLIC FOUNDATION

**The Proceedings of the International Scientific-
Theoretical Conference**

**«THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN
MUHAMMAD BABUR'S LEGACY ON THE
ADVANCEMENT OF EASTERN
STATEHOOD AND CULTURE»**

Tashkent - 2023

Chief editor:

Shuhrat SIROJIDDINOV,
Doctor of Philology, Professor
Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature

Zokirjon MASHRABOV,
Professor
Chairman of Babur International Public Foundation

Editorial Board:

Sirojiddin Sayyid (Uzbekistan), Elisabetta Ragagnin (Italy), Almaz Ulvi (Azerbaijan), Tanju Oral Seyhan (Turkey), Darya Jigulskaya (Russia), Farhad Rahimi (Iran), Vahob Rahmonov (Uzbekistan), Hamidulla Dadaboyev (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Islam Jemeney (Kazakhstan), Hamidulla Boltaboyev (Uzbekistan), Kosimjon Sodikov (Uzbekistan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Ne'matilla Otajonov (Uzbekistan), Nusratulla Jumaxo'ja (Uzbekistan), Abdumajid Madraimov (Uzbekistan), Omonulla Buriyev (Uzbekistan), Sultomurod Olim (Uzbekistan), Ikboloy Adizova (Uzbekistan), Burobia Rajabova (Uzbekistan), Shuhrat Hayitov (Uzbekistan), Odina Jamoldinova (Uzbekistan), Zulkumor Xolmanova (Uzbekistan), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Ziyoda Teshaboyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan), Karomat Mullaxujayeva (Uzbekistan), Otabek Juraboyev (Uzbekistan), Marguba Abdullayeva (Uzbekistan), Oysara Madaliyeva (Uzbekistan), Hilola Nazirova (Uzbekistan), Nodirbek Jurakuziyev (Uzbekistan), Sabohat Bozorova (Uzbekistan), Ozoda Tojiboyeva (Uzbekistan), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekistan)

In commemoration of the 540th anniversary of Zahir ad-Din Muhammad Babur's birth, a luminary poet, scholar, and statesman, we are pleased to present a compendium of erudite contributions derived from the international academic conference titled "The Impact of Zahir ad-Din Muhammad Babur's Legacy on Eastern Statehood and Culture." This compilation explores various aspects of Babur's life and achievements, including his contributions to literature and scholarship, as well as linguistic and historical investigations. This volume is intended for scholars, researchers, students, and a wider audience interested in Babur's enduring influence on Eastern culture and governance.

Note: Variations in author views and article titles may exist due to editorial preferences.

"BOBURNOMA" ASARINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Kamolidin Mamadaliyev Raxmatulloyevich*

Annotatsiya

Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosini o'rganish, aniqrog'i "Boburnoma" asarini o'qitishda integratsiyalashuv jarayoni va integratsiyalashtirish tamoyillarini, fanlararo bog'liqligini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar. *Integratsiya, texnologiya, metod, tarixiy suratlar, albomlar, tashbehn, mubolaga, qahramonlar tabiat, poetik nutq, ichki monolog, tabiat tasviri, psixologik holatida, badiiy to'qima, tarixiy izchillik.*

INTEGRATIVE APPROACH IN THE INTERPRETATION OF "BABURNAMA"

Annotation

In the article, we will analyze the process of integration and the principles of integration in the study of the creative heritage of Zahir ad-Din Muhammad Babur, more precisely, in teaching of the work "Baburnama", and its interdisciplinarity.

Key words. *Integration, technology, method, historical photos, albums, allusion, metaphor, nature of heroes, poetic speech, inner monologue, image of nature, psychological state, artistic fabric, historical consistency.*

Adabiyot darslarini o'qitishning turli metodlari ishlab chiqildi va ishlab chiqilmoqda. Har bir metodist o'z qarashlari va o'zining ilg'or fikrlari bilan badiiy adabiyotni o'qitishning eng qulay, samarali yo'llari borasida ilmiy mushohadalar yuritib kelmoqda.

So'zning badiiy malohati va unga havas-ishtiyoyqning paydo bo'lishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyos ekanligini hamma yaxshi biladi. Badiiy adabiyot namunalari o'quvchining nafaqat badiiyat olamiga yetaklaydi, balki uning olam va atrof muhit, odamlar, ularning ichki dunyolari borasidagi bilimlarni o'zlashtirishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sankt-Peterburg universiteti tadqiqotchisi M.S.Emelyanov o'zining "Maktab ta'limida adabiyot va tarix o'qitishda integratsiyaning roli" nomli doktorlik dissertatsiyasida tarixiy faktlarning aniqlashtirilishi va o'quvchilarning tarixiy dalillarga qiziqishini orttirishda adabiy tarixiy asarlar muhim ahamiyat kasb etishiga alohida to'xtalib o'tadi [Емельянов, 2013, 29]. Olim adabiyot va tarixi fanlari integratsiyasiga erishish uchun bir dars mashg'ulotlarida bir necha o'qitish usullaridan foydalanish lozimligi, o'z hayotiy tajribasida esa muayyan mavzu, tushuncha va hodisaning mohiyatini anglatish, o'rgatish maqsadida, integratsiyalashgan darslarni tashkil qilganligini tushuntiradi. T.G.Brajening maqolasida esa, zamonaviy maktab predmetlari integratsiyasi borasida to'xtalib, tarix fanida berilgan mavzuni o'rgatishda shu mavzuda yaratilgan badiiy

* Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b., kmamadaliyev@mail.ru

adabiyot namunalaridan xabardor bo'lish tarix to'g'risidagi qiziqishlarini oshirishi alohida urg'ulanadi [Браже 1996, 78].

Bunday darslar hamisha boshqa darslardan ajralib turadi. Integratsiyalashgan darslarda fanlararo aloqalar jarayonida fanlar ikki guruhdan tashkil topadi. Birinchi guruh yetakchi integratsiyalashtiruvchi fan bo'lib, dars mashg'uloti aynan mana shu fan mvzularidan birining o'qitilishi asosiga quriladi. Ikkinchisi esa, integratsiyalashuvchi fanlar guruhidan iborat bo'ladi. Integratsiyalashuvchi fanlar yordamchi fanlar sifatida ham qaraladi. M.S.Emelyanov integratsiyalashishda ishtirok etadigan fanlarni yordamchi fanlar sifatida talqin qiladi.

Y.N.Kolokoltsev, A.V.Danovskiy va boshqalar muallifligida yaratilgan o'quv qo'llanmada maktab adabiyot kursi fan ichida va fanlararo integratsiyaga ega. Fanlararo integratsiyada ular adabiyot va tarix, adabiyot va jahon badiiy madaniyati, adabiyot va san'at kabilarni o'z ichiga olishini aytib o'tadi [Колокольцев 2009, 21]. Olimning fanning ichki integratsiyasi borasidagi mulohazalarida adabiyotning tilshunoslik, zamonaviy adabiyot va boshqa fanlar bilan aloqasi mavjudligi aniqlanadi. Biz olimlarning mulohazalariga qo'shilgan holda adabiyot fanining ichki integratsiyasi, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, folklor kabi fanlardan iborat bo'lishini qayd etib o'tmoqchimiz.

Boshlang'ich umumiy ta'limning zamonaviy texnologiyalari bo'yicha o'quv qo'llanmasida fanlararo aloqalar bo'limini yozgan M.G.Zabbarovaning fikricha, integratsiyalashayotgan fanlarning tushunchalari mohiyatini ochish uchun bir vaqtning o'zida o'quvchilarga bir necha fan doirasidagi bilimlar o'rgatilishi o'qitishning samarali metodlaridan biri ekan [Арябкина 2016, 190]. E'tibor berib qarasak, adabiyot darslarida integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish orqali adabiyot, tarix, geografiya, etnografiya, tilshunoslik, san'at, falsafa, dinshunoslik va boshqa bir necha fanlarning o'zaro bog'liqlari borligini guvohi bo'lamiz. Albatta, buning uchun mavzu va materialning mazmun mohiyati juda katta ahamiyatga egadir. Bizning tadqiqot obyektimiz bo'lgan "Boburnoma" asarini o'qitishda yuqorida keltirganimiz singari bir necha fanlar integratsiyasi kuzatiladi. Bu o'rinda adabiyot integratsiyalashtiruvchi – yetakchi fan vazifasini bajaradi, adabiyotdagi mavzuni mohiyatida muayyan tushunchalar, dalillar va hodisalarni aniqlashtirishda yordamlashuvchi fanlar – yordamchi fanlar bo'lib ular integratsiyalashuvchi fanlar sifatida qaraladi.

Boshqird tadqiqotchisi Asayeva Liana Xazislamovna tomonidan e'lon qilingan maqolada Lermontovning "Borodino" she'rinin o'qitishda tarix va adabiyot integratsiyasi borasida kuzatishlar o'z ifodasini topgan. Tadqiqotchi darsning borishini tasvirlarkan, kirish qismida she'riy asardagi noma'lum tushunchalar haqida ma'lumot berish maqsadida izohli lug'at, etimologik lug'atlarga murojaat qilish orqali Vatan va ota so'zlarining mantiqiy mazmunini ochib berishini keyingi bosqichda darsda o'quvchilarning mavzuga doir aniq tasavvur hosil qilishlari uchun tarixiy suratlar, albomlar, keyingi bosqichida she'riy asarda tasvirlangan davrdagi urush qahramonlari haqidagi tarixiy ma'lumotlarni bayon qilish; keyin she'riy asarni o'qish va tahlil qilish maqsadida suhbat uyushtirish dars mavzusini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etib, tarix, tilshunoslik, san'at va adabiyot fanlari integraatsiyasini aks ettiradi,-deb hisoblaydi [Асаева 2020, 31].

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri bu o'quvchilarni taraqqiy etgan jamiyat a'zosi sifatida hayotga tayyorlashdir. Ushbu vazifani hal qilish har xil turdag'i

vakolatlarning shakllanishi orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini shakllantirishning eng samarali usuli-maktab o'quv fanlarining integratsiyasi.

Shuningdek, integratsiyalashgan o'quv jarayoni integratsiyalashgan kasbga qiziqishni jonlantira oladi, maktab vaqtidan oqilona foydalanishga imkon beradi. Integratsiyalashgan darslar atrofdagi voqelikning yaxlit nuqtayi nazarini shakllantirishga hissa qo'shadi, turli hodisalar va hayotiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini sezishga imkon beradi.

Jamiyat rivojlanishida maktab ta'luming muhim va beqiyos xizmati bor. Ayni maktab darslarining mavzuni va sifati, ta'lim va tarbiya uyg'unligi har qanday millatning istiqbolini belgilab beruvchi masalalardan biridir.

Hech kimga sir emaski, ko'plab o'qituvchilar fanlararo munosabatlarni ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Integratsiyalashgan darsning o'ziga xosligi shundaki, u ikki yoki undan ortiq o'qituvchi yoki bir nechta qo'shni fanlar bo'yicha malakali o'qituvchini shakllantiradi. Integratsiyalashgan darsni tayyorlayotganda, uni amalga oshirish metodologiyasini ko'rib chiqish juda muhimdir. Bu o'rinda oldingi darsda berilgan uy ishidan tortib, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning imkoniyatlari va diqqatini tortishgacha bo'lgan masalalarni ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Integratsiyalashgan darsning so'ngida beriladigan uyga vazifa ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi lozim. Uy vazifasida integratsiyalashgan fanlarning mohiyatidan kelib chiqib, mavzuning muhim tomonlarini o'rganishga qaratilgan topshiriqlar aks etishi lozim. O'quvchilarning faolligi va intelektiga qarab integratsiyalashgan dars bir nechta akademik fanlar bo'yicha bilimlar aloqasini belgilash imkoniyatini anglatadi.

Shunday qilib, zamonaviy o'quv jarayonida integratsiyalashgan darslar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun biz integratsiyalashgan darslarning maqsad va vazifalariga murojaat qilamiz, ularning turlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Integratsiyalashgan darslarni Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosini o'rganish, aniqrog'i "Boburnoma" asarini o'qitishda integratsiyalashuv jarayoni va integratsiyalashtirish tamoyillarini tahlil qilamiz. Integratsiyalashgan dars g'oyasi qanday paydo bo'ldi? Mazkur g'oya dastlab G'arb olimlari tomonidan olg'a surildi. Keyinchalik, rus metodistlari bir dars jarayonida o'quvchilar bilim va ko'nimalarini kengaytirishni maqsad qilib oldilar va dars mashg'ulotlarida har bir tushuncha va hodisani izohlashda ilmiy tamoyillarga tayanish tarafdozlari paydo bo'ldi. Shu tariqa adabiyot ijtimoiy hayotning badiiy in'ikosi degan nazariyaga tayanib, badiiy asarlarni tahliliga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi.

O'qituvchilar oldidan zamonaviy ta'lim o'quvchilar tasavvurida yaxlit holda shakllantirish vazifasini qo'yadi, so'ngra fanlar o'rtasida integratsiyaga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Fanlar o'rtasidagi integratsiya o'qituvchilar va o'quvchilar uchun katta imkoniyatlarni ochib beradilar. Integratsiyalangan sinflar doirasida talabalar bir nechta fanlar bo'yicha ma'lumotlardan foydalangan holda ko'p qirrali, yanada chuqurroq bilimlariga ega bo'ladilar. Integratsiyalashgan darsda eng muhim ko'nikmalardan biri - bu bir sohada ikkinchisiga doir bilimni o'zlashtirishdir. Bu esa, tanqidiy fikrlash, tahliliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, integratsiya mustaqil, bag'rikeng, mas'uliyatli shaxsning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga imkon yaratadi. Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarga mavzuga

oid ma'lumot va bilimlarni o'zlashtirishlarida differential yondashuvni amalga oshirishga yordam beradigan tarzda tashkil etiladi. Integratsiyalashgan dars o'z qobiliyatlariga qarab turli toifadagi o'quvchilar uchun imkoniyatlarni ochadi. Chunki, bir mavzu mohiyatni yoritish asnosida turli fanlarga xos bo'lgan bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Bunda albatta, o'qituvchining o'zi integratsiyalashadigan fanlar borasidagi tushunchalar, ma'lumotlardan yaxshigina xabardor bo'lmog'i lozim.

Shunday qilib, integratsiyalashgan darsda ishtirok etish jarayonida bir nechta obyektlardan olingan bilimlarni ishlab chiqish, tizimlashtirish, tahlil qilish, talabalar tomonidan olingan bilimlarning uzlusizligi ta'minlash talab etiladi. Integratsiyalashgan darsni to'g'ri tashkil etish uchun uning asosiy farqlarini darsning an'anaviy shakli bilan qiyoslagan holda aniqlash kerak. Integratsiyalashgan dars an'anaviy darsdan farqli o'laroq, o'rganilgan hodisalarning xilma-xilligini o'z ichiga olgan, adabiy materialni turli rakursda o'rganishda o'quvchi faoliyatini tashkil etish va uning turli usullaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Integratsiyalashgan darsda quyidagi didaktik vazifalar bajarib, unda quyidagilar amalga oshirilishi zarur:

- Integratsiyalangan fanlarni o'z ichiga olishi kerak;
- Bu tipdagи darsni tayyorlashda o'qituvchilar bir-biri bilan yaqindan o'zaro hamkorlik qilishi kerak;
- Integratsiyalashgan darslarni mavzuning murakkab tomonlarini ochish maqsadida, o'qituvchi majburiy ravishda tashkillashtiradi. Shuningdek, integratsiyalashgan darsni tayyorlashda o'qituvchi o'quvchilar, sinf imkoniyatlari, o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarga alohida e'tibor qaratishi kerak. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish integratsiyalashgan fanlar bo'yicha o'rganilgan ma'lumotlarni o'rganishda aniqlik, mulohaza va mantiqiy aloqalarni ta'minlash lozimligini anglatadi. Shu asosda integral sinflarning umumiyoq tavsifi turli xil o'quv fanlarining o'quvchilarning ikki va undan ortiq o'qituvchilar ishtirokida mashg'ulotlar tashkil etish va o'tkazish;
- Integratsiyada amalga oshirilayotgan fanlar bo'yicha asosiy malakaga ega bo'lgan bitta o'qituvchida darslarni tashkil etish va o'tkazish;
- nafaqat bitta integratsiyalangan sinflarni, balki integratsiyalashgan iloji boricha shunday kurslarni yaratish maqsadga muvofiq keladi.

Ta'kidlash joizki, integratsiyalashgan sinflarning o'quv jarayoniga jalb qilinishi talabalarning mustaqil faoliyati hajmining ko'payishini anglatadi, chunki fanlar bo'yicha o'rganilayotgan materiallar kengaya boradi. Temuriylar davri tarixining muhim adabiy tarixiy manbasi sanalmish "Boburnoma"ga bag'ishlangan tarix va adabiyotda integratsiyalashgan darsning ko'rib chiqaylik. Tanlangan mavzuning dolzarbliji asar voqealari 1494-yil voqealari bayonidan boshlanadi. Bu Temuriylar tarixining muhim davri haqidagi tarixiy hodisalar tafsiloti edi.

"Farg'ona viloyati beshinchи iqlimdadir. Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning chegarasi – tog'lar, shimolida ilgarilar Olmoliq, Olmotu va Yangi singari shaharlar bo'lgan ekan, uni kitoblarda O'tror deb yozadilar, mo'g'ul va o'zbaklar yurishlari tufayli hozirgi paytda buzilib ketgan, aslo obodonlik asari qolmagan. Kichik viloyatdir, g'alla va mevasi farovon. Tevarak-atrofi tog'lar bilan o'ralgan. G'arbiy tarafida, ya'ni Samarqand va Xo'jand tomonida tog' yo'q. Ushbu yoqdan boshqa hech bir tomonidan qishda dushman kela olmas. Sayhun daryosi Xo'jand suvi nomida mashhur, u sharq-u shimol tarafidan kelib, viloyatning ichi bilan

o'tib, g'arb sari oqadi; Xo'jandning shimoli va Fanokatning (hozir Shohruxiya sifatida mashhur) janubiy tarafidan o'tib, yana shimolga burilib, Turkiston sari boradi. Turkistondan ancha quyiroqda bu daryo butunlay qumga singib ketadi, bironta daryoga qo'shilmaydi."

Asardagi mazkur parchani o'qitishda Geografiya faniga murojaat qilish talab etiladi. Farog'ona viloyatining chegaralari, tog' tizmalari, unga yaqin shaharlar haqida ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlarning tasdig'ini topish uchun tarix va manbalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. O'qituvchi birligina mavzu doirasidagi bilimlarni o'quvchilarga yetkazish uchun tarix, geografiya, manbashunoslik kabi fanlarga murojaat qilishi, shu fan sohasi mutaxassislari bilan muloqotda bo'lishi talab etiladi. Demak, "Boburnoma" asarini integratsiyalashgan holda o'qitish fan o'qituvchisidan darsga jiddiy tayyorgarlik ko'rishini, integratsiyalashayotgan fanga doir bilim va tushunchalar bilan ham qurollanishini talab etadi.

"Boburnoma" asarini o'qitishda integratsiyalashgan dars tashkil etishda asarning mazmunini tarixiy dalillar va tarixiy haqiqatga munosabatini aniqlash ham lozim. Zahriddin Muhammad Bobur tomonidan memuar asarida keltirilgan tarixiy dalillarning yana boshqa tarixiy manbalardagi ma'lumotlar bilan chog'ishtirish asnosida o'sha davr tarixiga doir haqiqatni anglash va u bilan o'quvchilarni tanishtirish kerak bo'ladi.

Asarda Umarshayx Mirzo "O'sha fursatdan to'qqiz yuz sakkizinch (1502) yilgacha Toshkent va Shohruxiya viloyati Chig'atoy xonlarining tasarrufida bo'ldi. Bu fursatda mo'g'ul ulusining xon va sultonligi Yunusxonning katta o'g'li — mening tog'am Sulton Mahmudxonida edi. Umarshayx mirzoning og'asi Samarqand podshohi Sulton Axmad mirzo va mo'g'ul ulusining xoni Sulton Mahmudxon Umarshayx mirzoning yomon muomalasidan bezor bo'lganliklaridan bir-birlari bilan ittifoq tuzib, Sulton Ahmad mirzo Sulton Mahmudxonni uziga kuyov qilib, o'sha yili Sayhunning janub tomonidan Sulton Axmad mirzo va shimol tarafidan Sulton Mahmudxon Umarshayx mirzo ustiga lashkar tortdilar. Bu asnoda g'alati voqeа yuz berdi. Zikr etilganidek, Aksi qo'rg'oni baland jar ustida joylashgan, imoratlari ham jar yoqasida edi. Ushbu yili dushanba kuni, ramazon oyining to'rtinchisida Umarshayx mirzo jordan kabutarlar va kabutarxonasi bilan uchib, halok bo'ldi. O'ttiz to'qqiz yoshda edi.

Tavalludi va nasl-nasabi. Sakkiz yuz oltmishinch (1455) yili Samarqandda tug'ildi. Sulton Abusaid mirzoning to'rtinchchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo, Sulton Mahmud mirzodan kichik edi. Sulton Abusaid mirzo Sulton Muhammad mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o'g'li edi. Mironshoh mirzo Temurbekning uchinchi o'g'li edi. Umarshayx mirzo bilan Jahongir mirzodan kichik, Shohrux mirzodan katta edi.

Umarshayx mirzoga berib, Boboi Kobuliyni bekota qilib, jo'nashga ruxsat bergandi. Mirzolarning sunnat to'yi sababli Darai Gazdan qaytarib, Samarqandga keltirtirdi. To'ydan so'ng, Temurbek katta Umarshayx mirzoga Farg'ona viloyatini bergenidek, Sulton Abusaid mirzo ham o'g'li Umarshayx mirzoga Andijon viloyatini berib, Xudoyberdi Tug'chi Temurtoshni bekota qilib yubordi.

Shakl-shamoyili: past bo'yli, yumaloq soqolli, sarg'ish yuzli norg'il kishi edi. To'nni rosa tor kiyar edi. Shunchalikki, belbog' bog'laganda qornini ichiga tortib bog'latar, bog'lagandan so'ng o'zini qo'yib yuborsa ko'pincha bog'lari uzilib ketardi. Kiymoq va yemoqda betakalluf edi. Sallani dastorpech (maxsus salsa o'raydigan kishi) o'rab qo'yardi. U zamonda sallalar butun to'rt o'rama bo'lardi. Tekis chirmab, uchini

osiltirib qo'yardilar. Yoz paytlari mahkamadan boshqa yerlarda aksar mo'g'ulcha bo'rk kiyardi.

Fe'l-atvori: hanafiy mazhabida, pokiza e'tiqodli kishi edi. Besh vaqt namozni tark qilmasdi. Umriy namoz qazolarini butunlay tamomlagan edi. Aksar tilovat qilar edi. Hazrat Xoja Ubaydullohga murid edi. Suhbatlariga ko'p musharraf bo'lgan, Xoja ham uni farzand der edilar.

Yaxshi savodi bor edi. "Xamsatayn" (Nizomiy Ganjaviy va Amir Xisrav Dehlaviy, "Xamsa" lari), dostonlar va tarixlarni o'qir edi. Ko'pincha "Shohnoma" o'qir edi. She'riy iste'dodi bor, biroq she'r yozishga qunt qilmasdi". Ko'rindiki, "Boburnoma" da tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar borasida kattagina noyob ma'lumotlar berilgan. O'qituvchi Bobur va Boburdan keyin yashab ijod etgan ijodkorlarning tazkiralari bu haqida nimalar bitilgani, Bobur ijodini tadqiq etgan olimlarimiz bu borada qanday fikrlar bildirganligini dastlab o'zi aniqlab olishi keyin bular xususida o'quvchilarga topshiriqlar berishi kerak bo'ladi. Shunda o'quvchilar adabiy materialdagi ma'lumotlarni tarixiy asarlar orqali aniqlashga kirishadilar. "Boburnoma" ning o'qitishda adabiyotga integratsiyalashadigan yana bir fan tarbiya – didaktikadir. Asardan keltirilgan parchadagi tarixiy shaxslarning xulqi, fazilatlari, axloqidagi kaamchiliklar kabi jihatlarning o'quvchilarga tushuntirish adabiyotning ikkinchi asosiy vazifasi bo'lgan tarbiya jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bunday darslar dastlab boshlanishida o'quvchilarga mustaqil topshiriq berishdan boshlangani, ularga asardagi tarixiy davr va tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlar qanchalik o'zini oqlaydi?- degan savol bilan murojaat qilish, imkon qadar "Boburnoma" mavzusini o'tishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga asar bilan tanishish va o'zi tomonidan ishlab chiqilgan savol va topshiriqlarni berib yuborishi lozim. Bunda teskari holat ko'zga tashlanadi. An'anaviy darslarda odatda uy vazifasi mavzudan keyin beriladi. Biroq intergatsiyalashgan darsda mavzudan oldin topshiriqlar berilib, o'quvchilar material bilan tanishadilar, ulardagi mazmun mohiyat borasida ma'lumotlar to'plashga, o'zlarida dastlabki tasavvurlar hosil qilishga harakat qiladilar. Dars jarayonida o'quvchilarning oldinroq qilgan harakatlari va ko'nikmalari qo'l keladi. Endi o'qituvchi o'quvchilar tomonidan topilgan topilmalar – ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshiradi. O'zi tomonidan qo'lga kiritilgan dalillarni o'quvchilarga taqdim etadi, hammasi birgalashib, muayyan masala yuzasidan yagona xulosaga keladilar. Agar biz darsni shu tariqa tashkil etsak, albatta, u samarali bo'ladi. Bunda birinchidan, o'quvchilarning faolligi ortadi, ikkinchidan, o'quvchilar adabiyot va unga integratsiyalashayotgan fanlar o'rtasidagi qiziq jihatlarni o'rganishdan zavq olish natijasida unga oshufta bo'ladi. O'quvchilarda fanga mehr ortadi, uchinchidan, o'quvchilar va o'qituvchi bir masala yuzasidan jonli muloqot yarata olishga erishadi. Sinf o'quvchilari va o'qituvchining diqqati bir yerga jamlanadi.

Demak, umumta'lim maktablari adabiyot darslarida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini integratsiyalashgan dars vositasida o'qitish borasidagi xulosalarimizni quyidagicha umumlashtiramiz:

1. Umumta'lim maktablari adabiyot darslarida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini integratsiyalashgan dars vositasida o'qitish o'quvchilarning nafaqat adabiyot, balki, tarix, etnografiya, geografiya, tilshunoslik, manbashunoslik fanlari bilan bog'lashga, shu fanlarga doir bilimlarning hayotiy o'rnini aniqlab olishlarida yordam beradi.

2. Integratsiyalashgan dars jarayonida adabiyot fani yetakchi integratsiyashtiruvchi, qolgan fanlar integratsiyalashuvchi (yordamchi) fan sifatida o'quvchilarni o'ziga tortadi.

3. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini integratsiyalashgan dars vositasida o'qitish o'quvchilarning axloqiy tarbiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

Емельянов М. С. 2013. *Роль интеграции литературы и истории в школьном преподавании*. Дисс. докт. пед. Наук. СГПУ.

Браже Т.Г. 1996. Интеграция предметов в современной школе// Лит. В шк. №5.

Колокольцев Е.Н., Дановский А.В. и др.; Под ред. Колокольцева Е.Н. 2009. Москва, Просвещение.

Арябкина И.В., Березова Н.А., Дормидонтова Л.П., Заббарова М.Г., Курылева М.В., Спиридонова А.А., Стрюкова Г.А., Тихонова А.Ю., Шемарина И.Ю. 2016. *Современные технологии начального общего образования*. Ульяновск: ФГБОУ ВПО "УлГПУ им. И.Н. Ульянова".

Husanboyeva Q., Niyazmetova R. 2020. *Adabiyot o'qitish metodikasi*. O'quv qo'llanma. Toshkent, Innovatsiya-ziyo.

Qudratullayev H. 2009. *Bobur armoni*. T.: Sharq.

Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma. 2002. Toshkent.: Sharq.

"BOBURGA OID MANBALAR" DAFTARI XUSUSIDA (Abdulla Nosirov, O'zR FA ShI asosiy fondi № 13395)

Oysara Madaliyeva*
Bu daftar kichkina narsa, lekin xazina.
(A.Nosirov)

Annotatsiya

Mazkur maqolada A.Nosirov tomonidan tuzilgan "Boburga oid manbalar" daftarining (O'zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondi № 13395) tuzilishi haqida so'z boradi. Daftar olimning salkam ellik yillik izlanishlari asosida tuzilgan. Unda Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi bilan bog'liq qo'lyozma va toshbosmalar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, daftarda Bobur faoliyatiga tegishli maqolalar mavjud gazetalardan parchalar yopishtirilgan. Ular 1985-yillargacha Bobur ijodining o'r ganilishi, bu merosga munosabatning namunalari bo'la oladi.

Kalit so'zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Nosirov, qo'lyozma, toshbosma, boburshunoslik, tarixshunoslik*.

EXPLORING THE NOTEBOOK "SOURCES OF BABUR" BY ABDULLA NOSIROV (Main Fund of the Russian Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan No. 13395)

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodimi, O'zR FA Sharqshunoslik instituti, madaliyeva@gmail.com

**VI SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY-ILMIY
MEROSINING FILOLOGIK ASPEKTI**
**PANEL VI. THE PHILOLOGICAL ASPECT OF ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD BABUR'S LITERARY AND SCIENTIFIC HERITAGE**

Baxtiyor FAYZULLOYEV. Adabiy ta'limda "Boburnoma"ni o'rganish masalalari	406
Ne'matilla OTAJONOV. The problem of filling up blanks (gaps, lacuna) in Babur's "Baburname" (Memoirs)	410
Otabek JO'RABOYEV. Zahiriddin Muhammad Boburning jahon qo'lyozma fondlaridagi asarlari haqida	416
Shuhrat HAYITOV. "Boburnoma"ning yangi tarjimalari xususida	423
Elçin İBRAHİMOV. Zahîrüddîn Muhammed Babürün "Baburname" Eserinin Türkçe'ye Katkıları	429
Marg'uba ABDULLAYEVA. "Boburnoma" tadqiqotlar obyekti sifatida	432
Ahmet AKALIN. Türkiye'de Babür Araştırmaları: Doktora ve Yüksek Lisans Tezleri Üzerine Betimsel Bir Araştırma	438
Shaxlo NARALIYEVA, Xulkar XAMRAYEVA, Salimjon G'ANIYEV. Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida yuritiladigan umumta'lum mакtablarida Bobur ijodini o'rganishning innovatsion usullari	443
Jo'ra XUDOYBERDIYEV. Boburiy xat va unda bitilgan Qur'on: topilishi, dastlabki tadqiqotlar	448
Muso TOJIBOYEV. Bobur ijodiy merosining germenevtik konsepsiysi	455
Kamolidin MAMADALIYEV. "Boburnoma" asarini o'qitishda integrativ yondashuv	459
Oysara MADALIYEVA. "Boburga oid manbalar" daftari xususida (Abdulla Nosirov, O'zR FA ShI asosiy fondi № 13395)	455
Ozoda TOJIBOYEV. "Boburnoma" biografik manba sifatida	469
Dilafruz MUHAMMADIYEVA. "Boburnoma"ning elektron platformasini yaratish – davr talabi	474
Sirdaryoxon O'TANOVA. "Boburnoma"ning ozarbayjoncha tarjima-kitoblari haqida ayrim mulohazalar	481

**VII SHO'BA. BOBUR VA BOBURIYLAR SIYMOSINING ZAMONAVIY
ADABIYOTDAGI BADIY TALQINI, ADABIY TA'SIR VA IZDOSHLIK
MASALALARI**

**PANEL VII. THE PORTRAYAL OF BABUR AND BABUR STUDIES
SCHOLARS IN MODERN LITERATURE, ISSUES RELATED TO LITERARY
INFLUENCE AND FOLLOWERSHIP**

Bahodir KARIMOV. "Boburnoma" va "O'tkan kunlar" romani qiyosiga doir ayrim mulohazalar	487
Афтандил ЭРКИНОВ. Легитимация вымысла в Кокандском ханстве при Умар-хане (1810-1822): как "Бахтияр-нама" Дакаики Самарканди легло в основу легенды об "Алтун бишик"	495
Emek Üşenmez Acceptance of the Islam by Turks and the First Translations of Qur'an in Turkic	513

ILMIY NASHR

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MERO SINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy
konferansi materiallari**

Toshkent - 2023

**Nashriyot litsenziyasi № 2044, 25.08.2020 y.
“Times new roman” garniturasi, kegli 14. Offset
bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog`i 35,9.
Adadi 100 dona. Buyurtma №101**

**Zebo prints MCHJda chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod
tumani 58-A harbiy shahrcha.**